



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

MUKARRAMA MURODOVA SHE'RLARIDA PEYZAJ TASVIRI

Dilshunosxon Inomova

Qo'qon universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada taniqli shoira Mukarrama Murodova ijodida peyzaj tasvirlarining badiiy-estetik ahamiyati tahlil qilinadi. Adabiyotda peyzaj – tabiat manzaralarini badiiy tasvirlash vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiat manzaralari nafaqat voqealar rivoji uchun fon bo'lib xizmat qiladi, balki qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ifodalash, ularning ichki olamiga kirib borish imkonini beradi. Muallifning asarlarida tabiat manzaralari nafaqat voqealar fonini yaratish, balki qahramonlarning ichki kechinmalarini ochishda muhim badiiy vosita sifatida qo'llanilganligi misollar bilan ko'rsatiladi. Maqolada peyzajning obrazlilik, poetik ifoda va milliy ruhni yoritishdagi o'rni tahlil etilib, yozuvchining o'ziga xos uslubi va badiiy mahorati ochib beriladi. Shuningdek, Murodova ijodidagi peyzaj motivlarining o'zbek adabiyotida an'anaviy tabiat tasviri bilan bog'liqligi hamda yangicha ifoda usullari tahliliy yondashuv asosida o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Peyzaj, tabiat manzarasi, badiiy tasvir, obrazlilik, milliy ruh, poetik mahorat.

ПЕЙЗАЖНОЕ ИЗОБРАЖЕНИЕ В СТИХОТВОРЕНИЯХ МУКАРРАМЫ МУРОДОВОЙ

Дилшуносхон Иномова

независимый исследователь, Кокандский университет.

Аннотация

В статье анализируется художественно-эстетическая значимость пейзажных изображений в творчестве известной поэтессы Мукаррамы Муродовой. В литературе пейзаж как средство художественного изображения природных картин обладает важной ролью: природные картины выступают не только фоном развития событий, но и позволяют выразить душевные переживания персонажей и проникнуть в их внутренний мир. На примерах показано, что в произведениях автора пейзаж выполняет не только фоновую функцию, но и используется как значимое художественное средство раскрытия внутреннего состояния героев. В статье рассматривается место пейзажа в формировании образности, поэтической выразительности и отражении национального духа, раскрываются своеобразие авторского стиля и художественное мастерство. Также на основе аналитического подхода изучаются связи пейзажных мотивов в творчестве Муродовой с традиционной природной образностью узбекской литературы и её обновлёнными способами выражения.

Ключевые слова: пейзаж, природная картина, художественное изображение, образность, национальный дух, поэтическое мастерство.

LANDSCAPE IMAGERY IN THE POETRY OF MUKARRAMA MURODOVA

Dilshunosxon Inomova

Independent Researcher, Kokand University.

Abstract

This article examines the artistic and aesthetic significance of landscape imagery in

the works of the well-known poet Mukarrama Murodova. In literature, landscape description as a means of depicting nature plays an essential role: it serves not only as a background for the development of events but also as a vehicle for expressing characters' emotional experiences and accessing their inner world. Through illustrative examples, the study shows that in Murodova's poetry, natural scenery functions not merely as a setting but as an important artistic device for revealing inner feelings. The article analyzes the role of landscape in shaping imagery, poetic expression, and national spirit, thereby highlighting the author's distinctive style and artistic mastery. In addition, using an analytical approach, it explores how Murodova's landscape motifs relate to the traditional representation of nature in Uzbek literature while also demonstrating innovative modes of expression.

Keywords: landscape imagery, natural scenery, artistic depiction, imagery, national spirit, poetic mastery.

Adabiy asarlarda peyzaj – bu muallif tomonidan tabiat manzaralarining badiiy tasvirlanishi bo'lib, u matnga estetik go'zallik baxsh etish bilan birga, chuqur semantik vazifalarni ham bajaradi. Tabiat manzaralari orqali yozuvchi voqealar rivojini yoritadi, qahramonlarning ichki kechinmalarini ochib beradi, asarning umumiy kayfiyatini belgilaydi. Peyzaj tasviri ko'pincha syujetning muhim nuqtalarida paydo bo'lib, voqealarning ruhiy fonini yaratadi yoki obrazlar xarakteriga yorqinlik kiritadi. Adabiy peyzaj faqat tashqi ko'rinishning ifodasi emas, balki muallif dunyoqarashining, davr va makon tasavvurining ifodasidir. Xususan, romantizm, realizm, modernizm kabi adabiy yo'nalishlarda peyzaj obrazlari orqali inson va tabiat o'rtasidagi murakkab munosabatlar yoritilgan. Shu ma'noda, peyzaj adabiyotda nafaqat badiiy bezak, balki mazmunni chuqurlashtiruvchi va g'oyaviy yuklama beruvchi vosita sifatida alohida ahamiyatga ega.

Peyzaj tasviri yozuvchining ichki olamini, estetik didini va hayotiy qarashlarini ifoda etish imkonini beradi. Tabiat manzaralari orqali u nafaqat voqelikni tasvirlaydi, balki o'quvchining his-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazishga intiladi. Bu jihatdan peyzaj – bu bir vaqtning o'zida ham real muhitning badiiy ifodasi, ham ramziy obrazdir. Ayrim hollarda tabiat tasviri inson kechinmalarining to'g'ridan-to'g'ri in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, bulutli osmon g'amginlikni, yorqin bahor manzarasi esa umid va quvonchni anglatadi.

Adabiyotda peyzaj obrazlari milliy ruh, tarixiy davr va ijtimoiy holatlarni ham o'zida mujassam etgan bo'lishi mumkin. Ayniqsa, o'zbek adabiyotida tabiat tasvirlari orqali xalqning yashash tarzi, qadriyatlari va ruhiy holati ifodalangan. Cho'l, dasht, tog', daryo kabi manzaralar faqatgina fon emas, balki ma'naviy-ma'rifiy mazmun bilan boyitilgan obrazlardir. Shunday qilib, peyzaj adabiyotda muhim badiiy vosita sifatida asarning mazmunini boyitadi, obrazlar dunyosini kengaytiradi va o'quvchini matn bilan chuqurroq bog'laydi. Tabiat manzaralari nafaqat voqealar rivoji uchun fon bo'lib xizmat qiladi, balki qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ifodalash, ularning ichki olamiga kirib borish imkonini beradi. O'zbek adabiyotida bu an'ana qadimdan shakllangan bo'lib, ko'plab adiblar ijodida tabiat tasviri alohida o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, Mukarrama Murodova ijodini tahlil qilish jarayonida uning peyzaj tasviriga bo'lgan yondashuvi alohida e'tiborga loyiqdir.

Adabiyotlar tahlili. Aslida lirik she'riyatda peyzaj va portret faol ishlatiladigan badiiy tasviriy vositalardan sanaladi. Bu haqda qator ilmiy adabiyotlarda fikrlar bildirilgan. Jumladan, buyuk nemis mutafakkiri Gegel badiiy ijod falsafasi haqidagi joriy tasavvurlar haqida fikr yuritayotib, quyidagi uchta muhim jihatni keltiradi:

“1. Badiiy asar tabiat mahsuli emas, balki inson faoliyati bilan yaratiladi.

2. U inson uchun yaratilgan, uning tashqi borliqqa bo'lgan his-tuyg'ulariga qaratilgan va ko'p yoki oz miqdorda ba'zi hissiy muhitdan olinadi.

3. U ma'lum maqsadlarga ega". [4. 312]

Demak, har qanday badiiy asardagi tabiat tasviri ijodkor subyektiv olamida yaratiladi va u konkret lirik asarda aniq lirik sub'ektning borliqqa hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma'noda lirikadagi peyzaj lirik she'riyatda ma'lum badiiy-estetik vazifani, aniq badiiy g'oyani aks ettiradi.

Rus olimlari esa peyzaj "tasvir predmeti, avvalo, badiiy makonning ma'lim fon bilan ajratiladigan shaklga solingan qismi (...). Portret esa intererdan keyin keladi... Peyzaj aynan makonning ma'lum qismini tasviri sifatida mazkur makonning yaxlitligi haqidagi xabar asosida berilishi mumkin" deyishadi. [5. 512] Olimlar bu yerda ta'kidlagan peyzaj makonning bir qismi bo'lib, u ulkan makonning bir qismi, ammo undan aysro bo'lmasligi to'g'ri ta'kidlangan. Peyzajning aynan qismligi, ammo yaxlit makondan ajralmasligi shoir (umuman olganda barcha ijodkor)ga o'z ijodiy niyatini ifodalashgsha tashqi borliq detallariga saylab munosabat bo'ldish imkonini beradi.

O'zbek olimlari peyzajni lirik janr darajasiga alohida diqqat qilishgan: "Peyzaj lirikasi - tavsifiy lirikaning bir turi, lirik sub'ektning his-tuyg'u va kechinmalari tabiat tasviri orkali ifodalangan asarlar. Peyzaj lirikada tasvirlangan tabiat manzarasida lirik sub'ekt qalbi suratlanadi, lirik sub'ekt qalbidan o'tkazib berilgan manzara oniy kayfiyatning obraziga aylanadi" deyдилar. [5.65]

Mukarrama Murodova she'rlarida peyzaj tasvirlari juda sezilarli darajada ko'zga tashlanadi. U badiiy obrazlar orqali tabiat manzaralarini, muhit ruhiyatini va inson qalbining ichki kechinmalarini uyg'unlashtirib, she'rlarda hissiyotli tafakkurga mustahkam asos yaratadi. Zamonaviy o'zbek adabiyotida Mukarrama Murodovaning ijodi ko'p jihatdan yurtimizdagi ayol shoirlarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Uning she'rlari oddiy, soddalikda teranlikni ko'rsatib, o'quvchilar qalbiga yaqin bo'ldi va ko'plab yosh shoirlarga ilhom manbai bo'ldi. M.Murodova o'zbek lirikasidagi an'anaviy va zamonaviy unsurlarni uyg'unlashtirib, adabiyotimizda ayollar ovozinig yanada ko'tarilishi uchun zamin yaratdi. [4]

Metodologiya. Mazkur maqolada Mukarrama Murodova she'rlarini peyzaj (tabiat tasviri) nuqtayi nazaridan tahlil qilishda adabiy tanqid va tahlilning bir nechta asosiy metodlaridan foydalanildi. Jumladan, badiiy-formal tahlildan badiiy vositalarni aniqlash uchun, tematik yondashuv tahlilidan mavzu va g'oyani ochishda, psixologik tahlildan esa ruhiy holatlarni tushunishda, biografik metoddan shaxsiy hayot bilan bog'liqlikni ko'rsatib berish uchun foydalanildi.

Mukarrama Murodovaning she'riyatida peyzaj faktual tasvir emas, balki mazmun va tuyg'ularni ifodalovchi badiiy vosita, obrazlar orqali ruhiy kechinmalarni tashqi shaklga soluvchi mexanizm, milliy mentalitet va shaxsiy ruhiyatni uyg'unlashtiruvchi poetik qatlam, shoiraning estetik qarashlari va kechinmalarining ramzi sifatida faol xizmat qiladi.

Natijalar. Murodova she'rlarida tabiat manzaralari ko'pincha inson his-tuyg'ularining ramziga aylanadi. Masalan, "Uzoqlarni qo'msaydi qalbim" she'rida "uzoqlik" tabiiy landshaft sifatida emas, balki yo'qotish, sog'inch, ichki bo'shliq ramzi bo'lib chiqadi. Qalbdagi "yonib yurish", "so'nish" kabi obrazlar peyzaj bilan mos kelib, o'quvchini shoirning ruhiy kechinmalari bilan uyg'unlashtiradi.

Tabiat elementlari – gullar, yo'llar, ko'k osmon, daryo, sohil kabi elementlar she'rlarda tashqi ko'rinish sifatida emas, balki ruhiy holatni yanada boyituvchi vosita sifatida ishlatiladi. "Qoqigullar" she'rida gullarning rangi ("sariq gullar") va ularning joylashuvi ("yor tarafga eltar yo'llar") yurakka tuyg'u etkazadi: gullar orqali sog'inch, umid va ayriliq obrazlari paydo bo'ladi.

Shoira she'rlarini o'qir ekanmiz, uning tabiatni sinchkovlik bilan kuzatishiga, atrofdagi har bir detaldan mazmun qidirishiga guvoh bo'lamiz. Uning sinchkov nigohi hech

narsani nazardan chetda qoldirmaydi, har bir predmetdan ramz axtaradi. Yuqoridan pastga tomon shovqin solib tushayotgan sharsharadan ilhomlanib, shunday deydi:

Faryod deb yuragi dardli sharshara
Yuksakdan o'zini quyiga otar.
Yonida sanoqsiz tosh unga qarab,
Ehtimol asrlab sukutda yotar. [2]

Shoira sharsharaning tabiiy shovqinini shunchaki ovoz deb qabul qilmaydi, qila olmaydi. Suvdan chiqayotgan ovozda dardni his qiladi. Ammo ijodkorni qalam olishga undayotgan narsa bu sharsharaning faryodi emas, balki pastda uning yuqoridan dard bilan tushayotganligini tomosha qilib turgan toshlardir. Asrlar davomida alam va darddan o'zini quyiga otayotgan sharsharani e'tiborsiz kuzatayotgan toshlarni shoira o'z zamonasidagi parvosiz va loqayd insonlarga mengzaydi. Misralarda davom etar ekan, loqayd toshlarning o'rniga o'zini qo'yadi va savol beradi:

O, agar shu toshlar o'rnida mening
Ko'ngli bo'sh tuprog'im bo'lsa netardi? [2]

Chindan ham, hasratdan qiynalayotgan, nohaqliklardan azob chekayotgan insonni haqiqiy ijodkor jim kuzata oladimi? Biror mazlumning og'ir ahvolda tamom bo'lishiga shoirning hassos qalbi rozi bo'ladimi? Dastlabki misralardan so'ng tug'ilgan bu savollarga shoira she'r davomida javob beradi:

Suv dardin olardi, yo'qsa yuragi
Ezilib u bilan oqib ketardi. [2]

Ayni shu o'rinda shoiraning shaxs sifatidagi pozitsiyasi, inson sifatidagi qiyofasi bo'y ko'rsatadi. Shoira bu holga bardosh bera olmaydi va uning qarshisida ikki yo'l turibdi: yoki sharsharaning dardlarini olishga harakat qiladi, ung a yelkadosh bo'ladi yoki unga hamdard bo'la olmaslik hissi uni ado qiladi, u ham suv bilan birga oqib ketadi. Ammo asrlar davomida beparvo tikilib turgan toshlar singari tomoshabin bo'la olmaydi. Shu o'rinda ijodkor yozuvchi Isajon Sultonning "Kichkina pushtirang maxluqcha" hikoyasidagi Katoplepasni yodga soladi. She'rda shoira ilonning begunoh quyinni yeyishiga e'tibor bermayotgan, mazlumning zulm ostida qolishidan zavqlanayotgan olomonda yordam so'rab chinqirayotgan, hech qayerdan najot kelmagach, o'zini nobut qilayotgan kichkina pushtirang maxluqchaga o'xshaydi. Quyonga yordam bera olmay qiynalayotgan mavjudod singari u ham o'zini yeb bitiradi, "ezilib u bilan oqib ketadi". She'r oxirida u xalq orasida mashhur bo'lgan bir iborani yodga oladi.

Atrofga beparvo kimsani xalqim
Shuning-chun shu toshga o'xshatar balkim. [2]

Xalq nutqidagi "toshbag'ir" iborasining kelib chiqishini shoira o'zicha talqin qiladi. "Toshbag'ir" iborasi metafora usulida yuzaga kelgan bo'lib, toshning qattiqligi o'xshashlikka asos qilib olingan. Lekin shoira ko'chma ma'noga aynan toshning qattiqligini emas, balki uning sassizligini, jimligini oladi va bu o'xshatish she'r mazmunining ta'sirliroq chiqishiga sabab bo'ladi. "Shoiraning mazkur "Sharshara" she'ri Amerikalik inson huquqlari faoli, qora tanlilar huquqlari himoyachisi sifatida tanilgan xalq qahramoni Martin Lyuter Kingning "Musibat yomonlarning zulm qilishida emas, yaxshilarning jim turishida" degan so'zlarini tasdiqlaydi.

Shoira "Yaproqlar" she'rida tong chog'ida shabnamga cho'milgan yaproqlar bilan suhbatlashadi. Ulardan shabnamlarning sabablarini so'raydi:

Ayting, nechun subhidam
Kiprigingiz yoshlanur?
Yangi kuningiz shabnam –
Yig'i bilan boshlanur? [3]

Ushbu tabiat hodisasida yana bir narsa shoiraning e'tiborini tortadi. Subhda barglarni

egallagan tomchilar quyosh chiqqanidan keyin qayerga ketadi? Sharqdan xurshid ko‘ringach yaproqlarning ko‘zlari qurib, qayg‘ulari arishining boisi nima? Ma‘lumki, inson ko‘zining yoshlanishining qator sabablari bor. Sog‘inch, alam, og‘riq, xursandchilik yoki boshqalar. Mumtoz adabiyotimizda esa ko‘z yoshi ko‘p hollarda yorning visoliga yeta olmagan oshiq bilan birgalikda qo‘llanadi. Bundan tashqari visolga orzumand insonning hijrondan ko‘z yosh to‘kishini ham klassik lirikada ko‘p o‘rinlarda ko‘rish mumkin. Yusuf alayhissalom hajrida ko‘z yosh to‘kkan Yoqub alayhissalom bunga misol bo‘la oladi. Aynan mana shu ayriqliq sababli ko‘zda halqalangan yoshdan shoira nozik o‘xshatish topadi. Yaproqlarning “yosh”ini quyoshning sog‘inchi bilan bog‘laydi:

Yo quyoshga qalbingiz
Bo‘lgan edimi maftun?
Visolni kutib bedor
Ko‘z yosh-la o‘tdimi tun. [3]

Oqshom vaqti quyoshdan ayrilib g‘amga botgan yaproqlar tonda uni qayta ko‘rishi bilan yig‘lashdan to‘xtaydi, bir-birini turtkilab raqsga tusha boshlaydi. Shoira yaproqlarning quyoshni ko‘rgan paytdagi quvonchini faqatgina shabnam – yoshning qurishi bilan bog‘lamaydi. Ularning barglarini yuqori ko‘tarib, unga talpinishini ham visoldan lazzatlanish deb baholaydi. Chindan ham, tong payti tabiatni kuzatar ekansiz, quyosh chiqqach shabnamning bargdan tushishi bilan yaproqlarning yuqori ko‘tarilganiga guvoh bo‘lasiz. Mana shu tabiat hodisasini sinchkov kuzatish shoiraga yuqoridagi kabi go‘zal o‘xshatish yaratish imkonini beradi.

Xulosa. Mukarrama Murodovaning she‘riy ijodida peyzaj tasviri badiiy-estetik jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lib, u faqat voqealar rivojini bezovta qilmaydigan fon sifatida emas, balki asarning g‘oyaviy va ruhiy qatlamini ochib beruvchi muhim poetik vosita sifatida xizmat qiladi. Shoira o‘zining tasviriy mahorati orqali tabiat manzaralarini inson qalbining ichki kechinmalari bilan uyg‘unlashtiradi, ularni ramziy va falsafiy mazmunga ega obrazlarga aylantiradi.

Peyzaj tasvirlarida metafora, personifikatsiya (insonlashtirish) va ramziy ifodalar keng qo‘llanadi. Tabiatdagi har bir detal – guldasta, yo‘l, shamol, tun yoki yorug‘lik – insoniy tuyg‘ularning in‘ikosi, hayotiy izlanishlar va ichki kurashlarning poetik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Shoiraning bu boradagi yondashuvi nafaqat hissiy, balki chuqur falsafiy mushohadalarga asoslangan bo‘lib, tabiat orqali hayot mazmuni, muhabbat, yolg‘izlik, kutish kabi mavzularni o‘ziga xos tarzda ifodalab beradi.

Mukarrama Murodova ijodida peyzaj shunchaki manzara emas, balki ruhiy holatni aks ettiruvchi zamin, obrazlar tizimining asosiy bo‘g‘ini, kayfiyatni beruvchi estetik vosita, ayni paytda milliy ruh va qadriyatlarning ifodasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Uning tabiat tasvirlari o‘zbek adabiyotida shakllangan an‘anaviy peyzaj tasvirlariga tayansa-da, ularni yangi ruhda, zamonaviy lirik-falsafiy talqinlar asosida boyitadi. Ayniqsa, ayolona noziklik, hissiy nazokat va estetik did bilan boyigan bu manzaralar Murodovaning she‘riyatiga o‘ziga xos ohang va chuqur mazmun baxsh etadi.

Shu bois, Mukarrama Murodovaning peyzaj tasvirlari o‘zbek adabiyotida an‘anaviy tabiat obrazlarining zamonaviy poetik talqini sifatida alohida e‘tiborga loyiqdir. Ular orqali shoira nafaqat insonning ichki kechinmalarini, balki butun bir avlodning estetik dunyoqarashini, milliy ruhiyatini va ruhiy-intellektual izlanishlarini badiiy tarzda mujassamlashtira olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Edward Allworth. An old mood returns to Central Asian literature // Literature

East and West. 1967, 11. 2: pp. 149-154.

2. М.Муродова. Сени куйлайман. – Тошкент: Ёш гвардия, 1986.
3. М.Муродова. Баҳор бошланибди. – Тошкент: Ёш гвардия, 1974.
4. O.Begaliyev. She'riyat shu'lasi // Yoshlik. 2017, 4-son.
5. Georg Fridrix Vilgelm Gegel. Estetika. V 4-x tomax. Tom 1-y. – Moskva: Iskusstvo, 1968. – 312 s.
6. Teoriya literaturi. V 2 t. / Pod red. N. D.Tamarchenko. – T. 1: N.D.Tamarchenko, V.I.Tyupa, S.N.Broytman. Teoriya xudojestvennogo diskursa. Teoreticheskaya poetika. – M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2004. – 512 s.
7. Quronov D., Mamajonov Z. Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 412 b.
8. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/mukarrama-murodova-poetry.html>